

Qoraqalpog‘iston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishi


2026- yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Qoraqalpog‘iston Respublikasida faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni
- II. Qoraqalpog‘iston Respublikasi sanoatining asosiy ko‘rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar va metama‘lumotlar

I. Qoraqalpog‘iston Respublikasida faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni

2026- yilning 1-aprel holatiga ko‘ra Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2 843 ta sanoat korxonalarini faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalarini soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 880 tasi (faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 31,0 % i) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 310 tasi (10,9 %) boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 250 tasi (8,8 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishga, 240 tasi (8,4 %) kiyim ishlab chiqarishga va 201 tasi (7,1 %) mebel ishlab chiqarishga to‘g‘ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1- aprel holatiga ko‘ra



II. Qoraqalpog‘iston Respublikasi sanoatining asosiy ko‘rsatkichlari shahar va tumanlar kesimida

Dastlabki ma‘lumotlar bo‘yicha 2026- yilning yanvar-mart oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi korxonalari tomonidan 7 580,9 mlrd so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2025- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 107,4 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so‘m	Fizik hajm indeksi, % da
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	7580,9	107,4
Nukus sh.	2021,9	103,4
Amudaryo tumani	515,9	105,8
Beruniy tumani	288,5	109,6
Bo‘zatov tumani	17,7	114,7
Qorao‘zak tumani	257,2	105,4
Kegeyli tumani	145,4	106,3
Qo‘ng‘irot tumani	425,0	105,5
Qanliko‘l tumani	218,1	105,2
Mo‘ynoq tumani	165,0	104,3
Nukus tumani	182,9	147,2
Taxiatosh tumani	1 256,2	109,3
Taxtakopir tumani	138,8	115,2
To‘rtko‘l tumani	457,3	107,3
Xo‘jayli tumani	217,8	109,2
Chimboy tumani	165,0	120,1
Shumanay tumani	65,3	124,2
Ellikqal‘a tumani	236,7	108,3

Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nukus shahrida (5 778,3 ming so‘m), Taxiatosh tumanida (16 143,2 ming so‘m), Mo‘ynoq tumanida (4 832,4 ming so‘m), o‘rtacha respublika darajasi ko‘rsatkichidan (3 688,2 ming so‘m) sezilarli darajada yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘shish sur‘ati 106,2 % ni tashkil etgan bo‘lsa, Nukus tumanida (144,6 %), Shumanay tumanida (123,7 %), Chimboy tumanida (119,6 %) qayd etilib respublika ko‘rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
Yanvar-mart oylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026- yilning yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, 6 163,8 mlrd so‘mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (81,3 %) ni tashkil etgan holda Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 86,4 mlrd so‘m (1,2 %), Elektr gaz bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalashda 1 283,8 mlrd so‘m (16,9 %) hamda Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishda 46,9 mlrd so‘m (0,6 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo‘yicha ishlab chiqarish hajmi, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2026- yilning yanvar-mart oylarida



III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026- yilning yanvar-mart oylarida respublikada 12,9 ming tonna paxta tolasi (2025- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 2,4 marta ko‘paygan), 437,4 tonna makaron (46,3 % ga ko‘paygan), 230,3 mln kub metr tabiiy gaz (13,7 % ga ko‘paygan), 63,3 ming tonna dinatriy karbonati (7,4 % ga ko‘paygan), 817,9 ming litr aroq (0,4 % ga ko‘paygan), 190,1 ming tonna portlandsement (14,6 % ga kamaygan), 22,2 ming tonna bug‘doy uni (15,9 % ga kamaygan), 6,8 ming tonna ip kalava (33,2 % ga kamaygan), 1,4 ming tonna o‘simlik yog‘i (38,5 % ga kamaygan), 434,0 tonna o‘simliklardan olingan sharbat va ekstraktlar (50,9 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2024 yil yanvar-mart *	2025 yil yanvar-mart *	2026 yil yanvar-mart
Portlandsement, tonna	187 281	222 589,9	190 098,0
Paxta tolasi, tonna	17 569,2	5 399,0	12 902,0
Tozalangan o‘simlik yog‘i, tonna	2 090,8	2 325,0	1 429,0
Bug‘doy uni, tonna	14 689,7	26 376,0	22 177,2
O‘simliklardan olingan sharbat va ekstraktlar, tonna	1804,0	884,0	434,0
Aroq, ming l 100% li spirt	902,9	814,9	817,9
Ip kalava, tonna	5 484,6	10 253,1	6 846,0
Tabiiy gaz, mln kub m	232,3	202,6	230,3
Dinatriy karbonati, ming t	58,4	58,9	63,3
Makaron, tonna	483,6	299,0	437,4

*2024-2025 yillarning yanvar-mart oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma‘lumotlar asosida shakllantirilgan.


Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 21,4 % (2025- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,3 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 27,6 % (2025- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 105,2 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,02 % ni (2025- yilning yanvar-mart oyida 0,1 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 33,1 % ni (34,1 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 10,0 % ni (9,8 %), quyi texnologiyali 56,9 % (56,0 %) ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2026- yilning yanvar-mart oyida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiya ishlab chiqarish 108,3 % ni, issiqlik energiyasini ishlab chiqarish esa 85,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024 yil yanvar-mart *	2025 yil yanvar-mart *	2026 yil yanvar-mart
Elektrenergiya, mln.kvt.s	1 572,1	1 219,3	1 320,4
Issiqlik energiyasi, ming gkal	21,6	17,8	15,3
Gazsimon yonilg‘ini quvurlar orqali taqsimlash bo‘yicha xizmatlar, mln so‘m	64 237,0	67 339,5	71 371,4

Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O‘tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlarda 83,2 % ga hamda suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlarda 78,6 % ga, shahar xo‘jaligining qayta foydalanishga yaroqli xavfsiz chiqindilarini yig‘ish bo‘yicha xizmatlarda 21,5 % ga ko‘payish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2024 yil yanvar-mart *	2025 yil yanvar-mart*	2026 yil yanvar-mart
Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, mln so‘m	2 039,4	2 344,1	4 294,5
Shahar xo‘jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz xavfsiz chiqindilarini yig‘ish bo‘yicha xizmatlar, mln so‘m	2 819,6	3 421,2	4 157,1
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar, mln so‘m	16 872,9	19 255,3	34 390,6

**2024-2025 yillarning yanvar-mart oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma‘lumotlar asosida shakllantirilgan.*

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 930,7 mlrd so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 38,7 % ni tashkil etdi. 2025- yilning yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 38,2 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar va metama‘lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o‘zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste‘moli mollarni yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog‘i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo‘yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni mahsulot turlari bo‘yicha shakllantirish O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O‘zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug‘ va konditsiyalangan havo, suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig‘ish va qayta foydalanish bo‘yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo‘yicha statistika ma‘lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma‘lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma‘lumotlari; e) uy xo‘jaliklari kuzatuv materiallari.



Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

- B** - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- C** - Ishlab chiqarish sanoati
- D** - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- E** - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Tayyorlash uchun mas'ul:
Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
M. Kurbanova
61 222-75-87 (9510)

Manzil:
230103, Nukus,
A. Dosnazarov kóshesi, 97 a-úy
Pochta: info@qrstat.uz
Tel.: +998 (61) 222-22-45
